



Til ta'limotidagi falsafiy mushohadalar

Otaboyeva Nodira Ubaydullo qizi

Andijon viloyati Izboskan tumani 45-umumta'im maktabi

ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslik fanining o'rganish obyekti va predmetini belgilashda tilshunoslarning qarashlari tahlil etildi. Fanning ijtimoiy fanlar orasidagi o'rni va uning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy fanlar, lingvistika, falsafiy tilshunoslik, til falsafasi, til va jamiyat, umuminsoniy munosabatlar, dialektik kategoriyalar, ontologik, gnoseologik, naturalizm.

Hozirga kelib butun jahon tilshunosligida tilni talqin etishda inson omilini birinchi o'rinda tutgan holda o'rganish tamoyili yetakchidir.

Bugungi kun til tadqiqida izlanuvchilar falsafa, grammatika, semantika, kognitologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya kabi qator yo'nalishlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Bundan maqsad tilni obyektiv tadqiq etishda inson omili qay darajada muhimligini aniqlashdan iboratdir.

Ushbu ishimiz tilning falsafiy talqiniga bag'ishlangan. Tilning falsafiy talqini uning mohiyatini va bajaradigan vazifalarini metodologik asoslash hamda uning mavjudligini belgilovchi asosiy shart-sharoitlar, qonuniyatlari, faoliyat shakllarini aniqlash bilan bog'liqdir. (T.Bushuy, Sh.Safarov) Mazkur masalalar yechimini topishda har qanday holda ham insoniyat ma'naviy-intellektual faoliyatining muhim sohalari bo'lmish falsafa yoki tilshunoslik (semiotika) doirasidagi tamoyillar amal qiladi.

Faylasuflar ta'sirida XIX asrdan boshlab tilning umumiy nazariyasiga bag'ishlangan deyarli barcha lingvistik asarlarda so'z ikki tomonlama xarakterga ega bo'lgan belgi sifatida talqin qilina boshladi. V.Gumboldt, Shleyxer, Shteyntal, L.Breal, A.Meye, F.Fortunatov, Boduen de Kurtene, N.Krushevskiy asarlarida so'zga belgi nuqtai nazaridan yondashiladi. Lekin F.de Sossyur tilning belgisi tabiatini aniq-ravshan yoritib berdi. Hatto belgi nazariyasi



bilan shug'ullanuvchi alohida fan – semiologiya mavjud bo'lishini va lingvistika ham semiologiya tarkibiga kirishi lozimligini ta'kidladi.¹¹

Tilshunoslik til haqidagi mustaqil ijtimoiy-tarixiy fan bo'lib, uning obyekti bo'lgan til tilshunoslikdan tashqari bir necha fanlar tomonidan o'rganishni talab qiladigan murakkab soha bo'lib hisoblanadi. Tilning xilma-xil tomonlari turli fanlarning o'rganish predmeti hisoblanadi. Til ta'limoti, birinchi galda, falsafa bilan chambarchas bog'liq, chunki falsafa tilshunoslikning metodologiyasini belgilab beradi. Masalan, sinergetika, dialektika, lison va tafakkur haqidagi ta'limot tilshunoslikning metodologik asoslarini tashkil etadi.

Turli fanlar ma'lumotlarini qayta ishlagan holda falsafa tilga ta'rif beradi. Dialektik falsafa tilga fikrni ifodalash va obyektivlashtirish vositasi, ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida qaraydi. Tilning kelib chiqishi, til va ong o'rtasidagi munosabat, dunyoning ma'naviy taraqqiyoti jarayonida tilning o'rni kabi umumiy tekshirish, talqin qilish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Har qanday fan inson amaliy ehtiyoji bilan yuzaga keladi. Insonning borliqni o'rganishga bo'lgan qiziqishi turli fanlarni yuzaga keltirgan. Borliq aslida jamiki narsa va hodisalarni, avvaldan mavjud bo'lgan, hozir mavjud bo'lib turgan va kelajakda mavjud bo'ladigan reallikni, moddiylik va ma'naviylikni, modda va g'oyani ham o'ziga qamrab oladi. Atrofimizdagi tabiat, olam, odam, jamiyat, tafakkur, g'oyalar, o'y-xayollarimizning barchasi birday mavjuddir. Ular turli tarzda va shakllarda ko'rinish berib, barchasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi. Shu jihatdan oladigan bo'lsak, til ham borliqning ajralmas qismlaridan biridir. Sababi borliq til vositasida anglanadi.

Har qanday fan amaliy bilish asosiga qurilgan nazariy bilishga asoslanadi. Bilish falsafa fanining asosi sanaladi. Qadimdan til muammolari falsafiy mushohadalar asosida talqin qilingan.

Qadimgi mashhur yunon faylasuflari Geraklit va Demokrit qarashlarida tilshunoslikning juda katta falsafiy muammosini qamrab olganligini ko'rish mumkin. Ular

¹¹ A.Nurmonov. Tanlangan asarlar, 2-jild. T.: "Akadem nashr", 2012-yil. 98-bet.



so'zning paydo bo'lishi, narsa bilan uning nomi o'rtasidagi munosabat yuzasidan qizg'in bahs-munozara olib bordilar. Bu muammo bo'yicha ular ikki qarama-qarshi guruhga bo'lindilar. Bir guruh narsa bilan uning nomi o'rtasida tabiiy munosabat mavjud, deb qarasa, ikkinchi guruh bu munosabat tabiiy emas, shartlidir deydi.¹²

Mazkur bahs-munozaralar Aflotunning mashhur "Kratil" dialogida ham o'z ifodasini topgan.

V.Gumboldtning falsafiy nazariyasi haqidagi ta'limotni to'laligicha o'rganilgan deb aytolmaymiz. Shuni ham e'tirof qilish kerakki, uning barcha asarlarida lisoniy falsafaning dolzarb masalalariga bag'ishlangan muhim fikrlar mavjud.

Til falsafasi tilning kelib chiqishi, mohiyati, kishilik jamiyatiga ta'siri va insoniyat sivilizatsiyasi bosqichlaridagi o'rni, roli, ahamiyatini falsafiy mushohada qilish bilan shug'ullanuvchi falsafaning bir bo'limidir¹³. Mazkur atama borliq va tafakkur o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shuningdek, bu munosabatlarni ifodalovchi va izohlovchi nazariy-metodologik bilimlarni o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar natijalarini o'zida aks ettiradi.

Til falsafasi til taraqqiyoti, ya'ni uning tarixining ham, tilshunoslik fanining ham ilmiy-nazariy analizini beradi. Shuningdek, til mantig'i, psixologiyasi va sotsiologiyasini o'ziga qamrab oladi. Til, uning vujudga kelishi, rivoji va ahamiyati haqida qadimdan hind va yunon faylasuflari fikr yuritganlar. Naturalistik falsafa tilni tabiiy yo'l bilan vujudga kelgan qobiliyat sifatida, idealistik falsafa esa ijod mahsuli sifatida o'rgangan.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni/Xalq so'zi, 2017-yil 8-fevral. - №28 (6722).

¹² A.Nurmonov. Tanlangan asarlar, 2-jild. T.: "Akadem nashr", 2012-yil. 10-bet.

¹³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/>



2. A.Nurmonov. Tanlangan asarlar, 1,- 2-jildlar. T.: "Akadem nashr", 2012-yil.

3. uz.wikipedia.org

4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>